

OUR UNIQUE SCIENTIFIC AND SPIRITUAL HERITAGE IS A SOURCE OF STRENGTH AND INSPIRATION.

Obid Kadyrov,

Head of the Department of General Psychology,
SamSU, Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Tel: +998902705702, obid.kodirov.79@mail.ru

Turakulova Zebiniso

SamSU, Faculty of Psychology and Social Relations
psychology Student

Annotation:

This article shows that such great geniuses in the field of science have been educated in educating our youth, that their great achievements in the development of science still retain their value, that our unique and unique scientific and spiritual heritage is a source of strength and inspiration. is becoming a source.

Keywords: Power, spiritual heritage, great scholars, our ancestors, patriotism, patriotic youth, education, state and politics, scientific, spiritual, cultural national heritage, evolving, globalizing, worthy generation, technology, innovation.

“Kuch qudratimizni kurmoqchi bo'lsang biz qurgan imoratlarga boq” - deb bejizga aytmagan Amir Temur bobomiz. Chunki har bir millatni ma'naviyati milliy qadryatlari qilayotgan ishlarida, sayi harakatlarida o'z aksini topadi. Millatimiz ham ana shunday betakror va noyob ilmiy – ma'naviy merosga egadir. Bizning milliy ma'naviyatimiz ming yillar mobaynida shakillanib sayqallanib hozirgi joziba kuchiga ega bo'lgan. Shu bois ham necha zamonlardan buyon bezavol yashab kelmoqda. Hatto ne-ne bosqinchilar ham uni o'zgartira olmagan bunga tarix guvohdir.

“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadryatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat” deydi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

Prezident Shavkat Mirziyoyev birinchi marta o'tkazilayotgan O'zbekiston yoshlari forumiga tashrif buyurib, nutq so'zladi. «Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o'z oldimizga ulkan marralar qo'yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo'lg'usi Renessansning eng muhim bo'g'inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo'shadilar».

«Men har gal yoshlarimiz bilan uchrashganimda sizlarning g'ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko'nglim tog'day ko'tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini sifatida qadrlayman», — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Biz buyuk allomalar dunyo tan olgan daholar avlodimiz. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Ahmad Farg'oniy, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, At-Termiziy, Imom al-Buxoriy, Abu Ali Ibn Sino, Zahiriddin Muhammad Bobur va yana ko'plab olimlar davlat arboblari yetishib

chiqganlar bu yurtida. Ulaning ishlari yaratgan asarlari nafaqat Osiyo balki Yevropa, Amerika mamlakatlarida ham tan olingan va o'rganilgan hozirda ham o'rganilmoqda. Ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy -ma'naviy va milliy merosni yanada boyitishga asrab avaylashga va kelgusi avlodlarga qoldirishga o'z hissamizni qo'shishimiz zarur.

Ma'naviy qashshoq xalq parokandadur. Ma'naviyati boy xalqni esa hech kim yenga olmaydi. Biz shunday milliy, ma'naviy merosga boy xalqmiz. Ma'naviyatimiz shakllanishida xalq og'zaki ijodining o'rni benihoya kattadir. Milliy urf odatlarimiz ananalarimiz ma'naviy qadryatlarimiz xalq dostonlarida, qasida va laparlarida, maqomlarida o'z aksini topgan. Ular sirasiga kiradigan "Go'r o'g'li" yoki "Alpomish" dostonlarini oladigan bo'lsak bu dostonlardagi obrazlarda erkaklarga xos mardlik, jasorat, adolat, vatan parvarlik, ziyaraklik sifatleri, ayollarga xos bo'lgan ibo hayo, go'zallik, latofat, fahm farosat, odob axloq kabi fazilatlar yorqin aks ettirilgan. Ulardagi har bir obraz talqini biz uchun ma'naviy merosdir. Asrlar oshsada bunday dostonlarimiz milliylikimiz va ma'naviyatimiz bezagi bo'lib avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Yigit va qizlar tarbiyasida bunday dostonlar muhim o'rin egallaydi. Bundan tashqari yana bu yurtdan odob axloq va ilm marifatga katta hissa qo'shgan davlat arboblari Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhmid Cho'lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Oybek kabi marifatparvar insonlar o'tishgan. Albatta ular shunchaki o'tib ketishmagan o'zlaridan kelajak avlod uchun ilm va marifatda o'chmas iz qoldirishgan. Ularning hayoti rus bolshevik-shovinistlari davriga to'g'ri keladi usha davrda ma'naviyatni marifatni rivojiga hissa qo'shgan har qanday ziyoli inson bolsheviklar tili bilan aytganda xalq dushmani sifatida qaralib surgun qilingan yoki otib tashlashga hukm qilinganlar. Chunki bolsheviklar mahalliy xalqlarni o'z ma'naviyatidan butunlay begona qilish siyosatini tutganlar. Har qanday ziyoli inson ular uchun dushman hisoblangan. Shu sababdan ham usha davrda yaratilgan ko'plab adabiyotlar, marifatparvar ziyolilarimizning asarlari yo'q qilingan. Shunday og'ir zamonlarda ham Oybek, Cho'lpon va Fitrat kabi ziyoli insonlar ma'naviyat, marifat yo'lidan hech ham qaytishmagan jon berib bo'lsada ma'naviyatni saqlab qolishga, va xalq erkinligi yo'lida kurashga katta hissa qo'shganlar.

Yana tarix zarvaraqlarida munosib o'rin tutgan va millatimizni dunyoga tanitgan shaxslar Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, kabi adolatli, mard va jasur, vatanparvar sarkardalar davlatni boshqarishda adolat va vatanparlik ila olib borgan ishlari bilan dunyo xalqlarini lol qoldirishgan. Amir Temur bobomizning davlat tuzishdagi va boshqaruvidagi ishlarini haligacha dunyo xalqlari katta qiziqish bilan o'rganib kelmoqda. U kishi yaratgan "Temur tuzuklari" davlat va siyosat ishlarida muhim qo'llanma ham hisoblanadi. Yana shunday ulug' siymolarimizdan biri Mirzo Ulug'bek bobomizni marifatparvar shoh va yulduzlar sirini bilguvchi koinot bilimdoni deb dunyo tanishadi. U kishi Amir Temurning nabiralari bo'lganlar. Taxtga chiqqanlaridan keyin toj-u taxtni qirq yil boshqargan. Hukumdorlik davrlarida ilm fan va madaniyatga katta e'tibor beradi. Ilk bor yulduzlar xaritasini tuzib bergan, o'n sakkizming yulduzni joylashish tartibi va nomma nom sanab bera olgan olim bo'lganlar. Astronomiya, matematika, fizika, tabiat fanlariga munosib hissa qo'shganlar. Ilm yo'lida qilgan ishlari ko'plab mamlakatlarda qo'llanma bo'lib foydalanilgan g'arb davlatlarida "Ziji ko'ragoniy" nomi bilan ham etirof etilgan. Vatandoshimiz Jaloliddin Manguberding jasorati, mardligi vatanparligiga hatto dushmani Chingizxon ham qoyil qolgani tarixdan bizga ma'lumdur. Ayrim asarlarda esa "shunday o'g'lim bo'lsaydi" deb havas qilgani ham aytib o'tilgan. Bizning ajdodlarimiz vatan uchun hatto jonidan ham kechishga tayyor mard oliyjanob insonlar bo'lishgani uchun ham dunyo xalqlari hurmat va havas bilan qarashadi.

Ilm yo'lida ham shunday buyuk daholar olimlar yetishib chiqganki ularni ilm fan taraqqiyotida ulkan yutuqlari haligacha o'z qimmatini saqlab turibdi. Shunday buyuk allomalarimizdan biri Al-

Xorazmiy matematika fani rivojiga katta hissa qo'shgan. Fanga birinchilardan bo'lib algoritim va algebra tushunchalarini kiritgan hamda o'nlik sanoq sistemasini joriy etgan. "Al-jabr val muqobala" asari algebra fani yaratilishiga asos bo'lgan. Ilm daholaridan yana biri G'arb davlatlarida Avetsina nomi bilan mashhur bo'lgan Abu ali Ibn Sino bobomizdir. Tibbiyot ilmi donishmandi deya etirof etiladigan bu inson yozgan risolalari va asarlari kasalliklarni davolashda dasturul amal hisoblangan. Asarlari bir necha tillarga tarjima qilinib ko'plab davlatlar meditsina sohasida qo'llanilgan. Hozirgi kungacha ham yozgan asarlaridan ayrim kasalliklarni davolashda foydalaniladi. Eng mashhur asarlaridan biri „Tib qonunlari" bo'lib unda xalq orasida uchraydigan minglab kasalliklar va ularni davolash usullari yoritilgan. Yana gigiyena qoidalari, nafsni teyish borasida muhim tavsiyalar aytib o'tilgan. Bu kitob o'z sog'ligini asrayman degan har bir inson uchun zarur qo'llanma hisoblanadi. Ibn Sino asarlari g'arb davlatlarida ham keng foydalaniladi. Ilm fan arboblardan yana biri vatandoshimiz Ahmad Farg'oniy o'z zamonasining zabardast vakillaridan biri bo'lgan. Ilm fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan allomaning "Astronomiya asoslari haqida" nomli kitobi o'sha davrning o'zida lotin va ivrit tillariga tarjima qilingani ham buning dalilidir. Yevropa xalqlarida Al-Fraganus nomi bilan ham mashhurdilar. Ilm fan yo'lida chuqur iz qoldirgan allomaning ismini Oydagi kraterlarning biriga ham berishgan.

"Al-jome as-sahih" nomli Qur'oni Karimdan keyin ikkinchi o'rinda turadigan kitob yozib hadislarini to'plash bilan shug'ullangan aziz va mutabar inson Imom al-Buxoriy musulmon ahlining eng buyuk insonlaridan biridir. Bu inson bizning diyorimizda tavallud topganlarining o'zi bir baxtdir biz uchun. U kishining hadislar to'plami millionlab insonlar uchun hayot yo'lini yoritguvchi shamchiroq bo'lib kelmoqda. Yer yuzidagi barcha musulmon davlatlar xalqlari hozirgi kunda ham mamlakatimizga u kishini xotirlab ziyoratiga tez tez kelib turishadi.

Biz ma'naviyat ilmiy va ma'naviy meros haqida gapirar ekanmiz Alisher Navoiy bobomizni tilga olmasak shunchasi bekordir. "Millatning ko'zgusi tildir" degan ibora bejiz aytilmagan. Alisher Navoiy adabiyot olamida noyob durdona asarlar yaratib berganlar. So'z mulkingning sultoni sanalgan Navoiy bobomiz turkiy va forsiy tillarda ijod etganlar. Turkiy tilda yozilgan asarlariga "Navoiy" forsiy tilda yozilgan asarlariga "Foniy" taxallusini qo'ygan. Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiylardan so'ng Navoiy ham xamsa yozganlar. Lekin u bu ishni boshqa xamsanavislariga qaraganda tezroq tugallaydi. Ya'ni 1483-yilda xamsa yozishni boshlaydi va 1485-yil bu ishni tugallaydi. Navoiy asarlari komil inson tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Hozirgi globallashuv jarayonida yoshlar ongiga har xil yot g'oyalar kirib kelishini oldini olish maqsadida ham Navoiy asarlarini yoshlarga ko'proq singdirishimiz kerak. Navoiyning barcha asarlarida odamiylik, haqiqatparvarlik, Ollohga muhabbat, mehribonlik, mardlik, odob axloq, sadoqat mavzulari keng o'rin olgan. Turkiy nazimda tengsiz sanalgan Navoiy asarlari bir qancha tillarga tarjima qilinib dunyoning ko'plab davlatlariga yetib borgan. Hatto mavlono Lutfiy ham Navoiyning Orazin yopg'och ko'zimdin sochilur har lahza yosh.

Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh

Deb boshlanuvchi baytiga o'zining umri davomida yozgan asarlarini almashardim deya yuksak baho beradi.

Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya va boshqa sohalarga oid qimmat baho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan kam topiladi.

“Ulug' allomalarimiz o'zlarining olamshumul kashfiyot va ishlarini sizning yoshingizda - ayni kuchga to'lgan yosh va navqiron chog'larida amalga oshirganlar. Siz ham buyuk ajdodlardan ibrat olib hayotda mo'jizalar yaratishga astoydil intilishingiz kerak" deya takidlaydi prezidentimiz.

Xulosa qilib aytganda biz shunday buyuk olimlar allomalar dunyo tan olgan daholar avlodimiz. Ularning qilgan ishlarini o'rganar ekanmiz yuraklar faxr iftixor tuyg'usi bilan to'ladi. Ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy ma'naviy, madaniy milliy meros bilan har qancha faxrlansak arziydi. Shu bilan birga ularga munosib avlod bo'lishimiz millatimiz sharafigi yanada yuksaklarga olib chiqishimiz lozimdir. Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan, globallashtayotgan zamonda yoshlarning bo'sh vaqtlari internet tarmog'ida yoki bekorchilik bilan turli ko'ngil ochar bazmgozlarda o'tayotgani va ayniqsa sharm-hayo, mehr-oqibat, insoniylik kabi fazilatlarining yo'qolib ketayotgani shu bilan birga biror bir mushkul vaziyatga tushib qolganda ayniqsa yoshlar orasida o'z joniga qasd qilish, sherigiga sovuq qurollar bilan jiddiy talofat yetkazish kabi holatlarning sodir bo'lishi, qizlarda esa yolg'iz ona bo'lish holatlarining hozirgi davrga kelib ko'p uchrayotgani eng achinarli holatdir. Bunday holatlarga sabablardan biri chetdan kirib kelayotgan g'arb davlatlariga xos bo'lgan madaniyat va turli g'oyalardir. Asosan serilallar va enternit orqali bizga kirib kelayotgan bunday g'oyalarda ochiq-sochiqlik, bir biriga hurmatsizlik va suisid kabi holatlar targ'ib etilgan. Milliy mentalitimizga yot bo'lgan bunday urf-odatlarini yoshlarimiz tezda uzlashtirib ularga taqlid qilmoqda. Bularni oldini olish, yoshlar ongiga yot g'oyalar kirib kelishini oldini olish, ularni milliylikimiz va mentalitimizga ta'sir etmasligi hamda yoshlarni barkamol avlod qilib tarbiyalash uchun asrlar osha sayqallanib kelayotgan ma'naviyatimizning o'rni beqiyosdir. Milliy va insoniy qadriyatlarimizni, ilmiy- ma'naviy merosimizni yoshlar ongiga chuqurroq singdirishimiz va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashimiz lozimdir. Maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar va oliygohlarda milliy ma'naviy tarix va ma'naviyat soatlari olib borilishi va ularni bo'sh vaqitini mazmunli utkazish uchun turli to'garaklar tashkil etish o'z samarasini beradi. Ilg'or texnologiyalar, innovatsiyalar asrida yashar ekanmiz doimo o'qish va izlanishda bo'lishimiz va vatanimiz taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shishimiz zarur. Buning uchun bizga keng imkoniyatlar ochiqdir. Yurt boshimiz doimo yoshlarni qo'llab quvvatlayotgani o'quvchi yoshlar uchun barcha sharoitlarni yaratayotgani hamda 2021-yilni “Yoshlarni qo'llab quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash” yili deb e'lon qilganligi ham buning yorqin dalilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. “Yoshlar forumidagi va ma'naviyat haqidagi” nutqidan 25 dekabr 2020 yil, 18:00 Siyosat.
2. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent; Ma'naviyat, 2008 y.
3. M. Abdullayev, E. Umarov, A. Ochildiyev, A. Yo'ldoshev, A. Abdullayev “Madaniyatshunoslik asoslari”. «Turon-Iqbol» nashriyoti, Toshkent — 2006 y.
4. M. Imomnazarov “Milliy ma'naviyatimiz asoslar”. o 'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2006.
5. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (XVI-XIX asr I yarmi) -Toshkent, Fan, 2006. - 240 b.
6. www.ziyouz.com kutubxonasi